



**SUG'ORILADIGAN YERLARNI YO'QLAMA (INVENTARIZATSIYA) DAN  
O'TKAZISH NATIJALARI BO'YICHA YER MONITORINGI MA'LUMOTLARINI  
SHAKLLANTIRISH**

**Hamidov Firuz Fayzulloyevich**

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti  
Egamova Dilchehra Adizovna*

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya .** Yer monitoringi, yer tarkibidagi o'zgarishlar, ya'ni yerlardan maqsadli foydalanish, tuproq unumдорлиги, sho'rlanganligi, eroziyaga uchraganligi, botqoqlanganligi, ifloslanganligi, ortiqcha namlangani yoki qurib qolganligi, o'zboshimchalik bilan egallab olingani, tabiatni muhofaza etish talablarini bajarmaganligini kuzatib borish hisoblanadi. Yer monitoringini yuritishda asosan qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan, lekin holati buzilgan yer maydonlarini aniqlash, ularni tiklash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarini tadbiq etish hisoblanadi

**Kalit so'zlar .** Yer monitoringi, yerlardan maqsadli foydalanish, tuproq unumдорлиги, sho'rlanganlik darajasi, sug'oriladigan yerlar, yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish, irrigatsiya tizimlari.

O'zbekiston Respublikasi tumanlari ma'muriy chegarasidagi mavjud sug'oriladigan yerlarda holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish ishlarini amalga oshirish bo'yicha maxsus "TARTIB" ishlab chiqilgan. Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Yer kadastri to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "2013–2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1958- sonli qarori va Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi Kengashining 2014 yil 29–iyuldaggi 01-03/1-250-tonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasida "Yerlarni yo'qlama(inventarizatsiya)dan o'tkazish bo'yicha ko'rsatma"si (VNA-32-003-09 Toshkent 2009) asosida ishlab chiqilib, tumanlar ma'muriy chegarasidagi mavjud sug'oriladigan yerlarda meliorativ holati yomon bo'lgan, suv ta'minoti etishmaydigan, sug'orish inshootlari yaroqsiz holga kelib qolgan, surinkasiga ekin ekilmasdan kelinayotgan (keyingi matnlarda holati yomon yerlar) yerlarni yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish ishlarini amalga oshirilishini belgilaydi.

Yo'qlama (inventarizatsiya) tuman ma'muriy chegarasidagi mavjud barcha sug'oriladigan yerlarining holati yomon bo'lgan yer maydonlarida o'tkaziladi.

Yo‘qlama (inventarizatsiya) tuman ma’muriy chegarasidagi sug‘oriladigan yerlarning holatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlarni o‘rganish maqsadida, jumladan:

- yer osti sizot suvlari ko‘tarilishi natijasida meliorativ holati yomonlashgan yerlarda;
- sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan va ikkilamchi sho‘rlangan yerlarda;
- suv ta’minoti etishmaydigan va sug‘orish inshoatlari yaroqsiz holga kelgan yerlarda;
- meliorativ tarmoq (zovur, drenaj)lar ishlamasligi oqibatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan chiqqan yerlarda;
- o‘ta toshloq va gips qatlami mavjud bo‘lgan yerlarda;
- daryo suvlarining ko‘tarilishi oqibatida, qirg‘oq bo‘yi ekin yarlari yuvilib ketgan yerlarda;
- buloq suvlari qurib qolib, foydalanilmayotgan yerlarda;
- surunkasiga qishloq xo‘jalik ekinlari ekimaslik oqibatida foydalanishga yaroqsiz holga kelgan yerlarda;
- foydalanilmasdan bo‘z holga aylangan yerlarda, olib borilayotgan ishlarni o‘rganish hamda holati yaxshilangan yarlarni yer hisobotiga kiritish va kelgusida holatini yahshilash bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni rejalshtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Yo‘qlama (inventarizatsiya) ishlarini yuqori darajada tashkil qilish maqsadida sug‘oriladigan yerlardagi holati yomon bo‘lgan yarlarni yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish to‘g‘risida tuman hokimining farmoyishi qabul qilinadi.

Tuman hokimining farmoyishi bilan tuman ma’muriy chegarasidagi sug‘oriladigan yerlarda holati yomon bo‘lgan yarlarni yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy va huquqiy muammolarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida tuman hokimining o‘rribosari, tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, tuman yer resurslari va davlat kadastro bo‘limi boshlig‘i, gidrogeologik meliorativ ekspeditsiyasi uchastkasi boshlig‘i, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi vakili, tuman Fermerlar kengashi hamda boshqa tegishli tashkilotlarning vakillari tarkibida tuman ishchi komissiyasi tuziladi.

Sug‘oriladigan yerlardagi holati yomon bo‘lgan yarlarni yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish ishlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tayyorgarlik ishlari;
  - dala ishlari;
  - kamyeral ishlar;
- yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash va tasdiqlash:

Tayyorgarlik ishlari.Tuman yer resurslari va davlat kadastro bo‘limidan tuman ma’muriy chegarasidagi mavjud sug‘oriladigan yerlarda holati yomon bo‘lgan yarlarni

oxirgi yillarda yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazilgan ishlarni natijasi bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar to‘plami va boshqa kyerakli hujjatlar olib o‘rganiladi.

Tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi, gidrogeologik meliorativ ekspeditsiyasi uchastkasi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasidan sug‘oriladigan yerlarning holatini yaxshilash bo‘yicha oxirgi yillarda o‘tkazilgan yo‘qlama (inventarizatsiya)dan so‘ngi davrlarda byudjet mablag‘lari hamda yerdan foydalanuvchilarining o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan ishlarni haqida ma’lumotlar olib, o‘rganib chiqiladi.

Tuman ma’muriy chegarasidagi sug‘oriladigan yerlarda holati yomon bo‘lgan yerlarni massivlar bo‘yicha 1:10000 mashtabdagagi xaritalarga yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar hamda yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik egaligiga yoki foydalanishiga berilmagan yerlarning chegaralari tushirilib, konturlar bo‘yicha yer maydonlarini hisoblash qaydnomalari tayyorlab olinadi

Dala ishlari. Sug‘oriladigan yerlarda holati yomon bo‘lgan yerlarni yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish bo‘yicha dala ishlari “O‘zdavyerloyiha” institutining hududiy korxona, filial va bo‘limmalarining mutaxassislari tomonidan yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilarining vakolatli vakili bilan birgalikda bajariladi, zarur bo‘lgan hollarda tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi, tuman Fermerlar kengashi, gidrogeologik meliorativ ekspeditsiyasi uchastkasi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi vakillari hamda boshqa mutaxassislar jalb etiladi.

Dala ishlari bo‘yicha har bir yer egasi, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar bo‘yicha alohida 2 (ikki) nusxdadan iborat dalolatnomada tuziladi va ish bajaruvchi hamda yer egasi, yerdan foydalanuvchi va ijarachi tomonidan imzolanib, yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish ishlarning natijalari tuman hokimining qarori bilan tasdiqlangandan so‘ng 1 (bir) nusxasi yerdan foydalanuvchiga beriladi. (dalolatnomada namunasi 1- ilovada ko‘rsatilgan)

Dalolatnomada yer egasi, yerdan foydalanuvchi va ijarachilarining jami yer maydoni; sug‘oriladigan yerlari va sug‘oriladigan yerlardagi holati yomon bo‘lgan yerlarning maydonlari aniq ko‘rsatiladi.

Dalolatnomada holati yomon bo‘lgan yerlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot ko‘rsatilishi kyerak, jumladan:

- kontur raqami;
- sug‘oriladigan yerlarning o‘zlashtirilgan vaqt;
- holati yomonlashishiga olib kelgan sabablari;
- qaysi yildan boshlab foydalanilmay kelinayotganligi;
- yerning holatini tiklash bo‘yicha oxirgi yo‘qlama (inventarizatsiya) o‘tkazilgandan so‘ngi davrlar davomida amalga oshirilgan ishlarning turlari va maydoni, shundan:
  - a) byudjet mablag‘lari hisobidan;
  - b) yerdan foydalanuvchilarining mablag‘i hisobidan;

- qancha maydon qayta tiklangan (qayta tiklangan maydon bo'lsa);
- hozirgi kunda qancha yer maydonidan foydalanayotganligi (ekin turlari bo'yicha);
- hozirgi kundagi haqiqiy ahvoli;
- yerning holatini yaxshilash uchun taklif va tavsiyalar.

Dala ishlarida tuman ma'muriy chegarasidagi har bir massivlar bo'yicha 1:10000 masshtabdagi xaritada yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar yer uchastkalarining chegaralari, maydoni va sug'oriladigan yerlardagi holati yomon bo'lган yerlarning chegaralari va maydonlari aniq belgilab olinadi.

Tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik egaligiga yoki foydalanishiga ijara berilmagan sug'oriladigan yerlardagi holati yomon yerlar ham yo'qlama(inventarizatsiya)dan o'tkaziladi. O'tkazilgan yo'qlama (inventarizatsiya) yakunlari bo'yicha massivdagi yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik egaligiga yoki foydalanishidagi sug'oriladigan yerlar uchun belgilangan tartibda dalolatnoma tuziladi va tuman yer resurslari va davlat kadastri, qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari boshliqlari tomonidan imzolanadi hamda ulardan kelgusida foydalanish bo'yicha tuman hokimligiga mutaxassis taklifi beriladi.

Kameral ishlarni bajarish. Dala ishlarining natijalari bo'yicha har bir massivga yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilarining yer maydonlari chegaralari, ularning sug'oriladigan yerlaridagi holati yomon bo'lган yerlarning maydonlari chegaralari tushirilgan 1:10000 masshtabdagi xaritalar 2 nusxada tayyorlanadi. Har bir massiv bo'yicha yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilarining konturlari kesimida sug'oriladigan yerlardagi holati yomon bo'lган yerlarni yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish bo'yicha ma'lumot tuziladi.

Tuman bo'yicha massivlar kesimida, yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilarining sug'oriladigan yerlaridagi holati yomon bo'lган yerlarini yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish bo'yicha ma'lumot tuziladi. Tuman massivlaridagi yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar kesimida ohirgi yilda aniqlangan holati yomon bo'lган yerlarda xolatini yashilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida malumot tuziladi

Tuman ma'muriy chegarasidagi sug'oriladigan yerlarda holati yomon bo'lган yerlarni yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish natijalari bo'yicha tayyorlangan jadvallar va qisqacha tushuntirish xati, tuman ishchi komissiyasida ko'rib chiqilib, komissiya bayonnomasi rasmiylashtiriladi va tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadi. Tumanlar bo'yicha jamlangan hujjatlar viloyat hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinnbosari boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan ko'rib chiqilib, kelishiladi va viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlanadi. Yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish ishlarining natijalari viloyat ishchi guruhining bayonnomasi bilan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy ma'lumotlar bo'yicha hujjatlar to'plami 2 (ikki) nusxada tayyorlanadi. Uning (bir) nusxasi tuman yer resurslari va

davlat kadastro bo‘limiga, hujjatlarning asl nusxalari va elektron varianti “O`zdavyerloyiha” institutining hududiy korxona, filial va bo‘linmalari arxivida saqlanadi.

Hujjatlar to‘plami quyidagilardan iborat:

- dalolatnama;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar kesimidagi sug‘oriladigan yerlarda holati yomon bo‘lgan yerlar tushirilgan massiv bo‘yicha 1:10000 mashtabdagi xarita va uning elektron varianti;
- sug‘oriladigan yerlardagi holati yomon bo‘lgan yerlar 1, 2, 3, 4, 5 jadvallari;
- tushuntirish xat;
- ishchi komissiya bayonnomasi;
- tuman hokimining qarori;
- viloyat hokimining qarori.

Umumlashtirilgan hujjatlar to‘plami, viloyat yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasiga, “O`zdavyerloyiha” institutining arxiviga, topshiriladi.

Umumlashtirilgan hujjatlar to‘plami quyidagilardan iborat:

- viloyat bo‘yicha tushuntirish xat;
- ishchi komissiyalarining bayonnomalari;
- tuman hokimlarining qarorlari;
- viloyat hokimining qarori.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). GERMANIYA KADASTR TIZIMINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 358-362.
2. Егамова, Д. А., Бобожонов, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). ПОВЫШЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ. The Way of Science, 57.
3. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). O’ZBEKISTONDA MULKNI HIMOYA QILISH HAMDA XUSUSIY MULKCHILIK SHAKLLARINI YANADA TAKOMILLASHTISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(15), 83-89.
4. Эгамова, Дильчехра, and Н. К. Ахадова. "МЕТОДИКА И ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.3 (2023): 53-57.
5. Adizovna, E. D. (2023). SYSTEM OF LAND STRUCTURE DESIGN IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN CONTENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 155-161.

6. Egamova, D., & Ahadova, N. (2023). O'ZBEKISTONDA YER TUZISHNI LOYIHALASH TIZIMI VA UNING ASOSIY MAZMUNI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 47-52.
7. Xasanov, F., Egamova, D., & Asatov, J. (2023). EKOLOGIK BERQARORLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINI LOYIHALASHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 138-143.
8. Egamova, D., Nurullayev, S., & Ahadova, N. (2023). XUSUSIY MULK SIFATIDA YERDAN FOYDALANISH MEXANIZMI SHAKLLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(3), 18-23.
9. Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 1-4
10. Adizovna, E. D. (2023). YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 173-178.
11. Adizovna, E. D. (2023). DISTINCTIVE FEATURES OF THE GERMAN CADASTRAL SYSTEM. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(20), 178-182.
12. Эгамова, Д. (2023). Социально-экономическое значение приватизации земельных участков. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 101-108.